



GAPNING IFODA MAQSADIGA KO'RA TURLARIDA PRESUPPOZITSIYA

Tursunova Javhar Bakir qizi

O'zMU jurnalistika fakulteti Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi

2-kurs magistranti, javhartursunova@gmail.com

tel: 90 926.98.62

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7785465>

ARTICLE INFO

Received: 21th March 2023

Accepted: 29th March 2023

Online: 30th March 2023

KEY WORDS

Presuppozitsiya, darak gap, so'roq gap, buyruq gap, ega va kesim, sodda gaplar, sintaktik qolip.

ABSTRACT

Hozirgi vaqtida presuppozitsiya hodisasi tilshunoslarning diqqat markazida. Bu hodisa turli til birliklarining kommunikativ tomonini o'rganish bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Presuppozitsiyani sintaktik sathda o'rganishni o'zbek tilshunosligida ko'plab olimlar qayd etishgan. Shuning uchun ham ushbu maqolada sodda gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarida presuppozitsiya hodisasining namoyon bo'lislini ko'rib chiqishga harakat qilinadi.

KIRISH

Presuppozitsyaning muhim xususiyatlaridan biri so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotning tushunarli bo'lishini taminlashdir. Bu esa, o'z navbatida, til hodisalarining pragmatik tomonini o'rganishda presuppozitsiya tushunchasining muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, presuppozitsiyani o'rganishda uning kontekst bilan bog'liqligini hisobga olish muhimdir. Lekin presuppozitsiya hodisasining barcha tillar uchun teng bo'lgan qoidasi shundaki, u gap tashqi strukturasida o'z moddiy ko'rinishini to'liq emas, ishora vositalari orqaligina bilib olish mumkin.

Bilamizki, sodda gaplar bir predikativ birlikka ega bo'lgan, gapning eng sodda ko'rinishi hisoblanadi. Bunday gaplar qay maqsadda ifodalanishiga ko'ra darak, so'roq va buyruq gaplarga bo'linadi va ular presuppozitsiya natijasida mazmunan kengayadi. Turli sintaktik qoliplar, gap tarkibidagi ba'zi bir birliklar va gapning tasdiq yoki inkor mazmuniga ega bo'lishi gapda presuppozitsiyaga yo'l ochadi.

Maqsad va vazifa: Ushbu maqola presuppozitsiya hodisasiga yana bir nazar tashlab, uning o'zbek tilida sintaktik presuppozitsyaning ifodalanishi yo'lidagi bir kichkina qadam sifatida, sodda gaplarning ifoda mazmuniga ko'ra turlarida yani darak, so'roq va buyruq gaplarda presuppozitsyaning yuzaga kelishi sabablari va yo'llarini turli tahlil usullari va misollar yordamida ko'rib chiqadi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu maqola bunday sodda gaplarda gap muallifning nimani nazarda tutishi va nimani ifodalayotganligiga qarab gap presuppozitsiyasi o'zgarishi mumkin. Bunday holatni biz intonatsiya va urg'u yordamida ajratib olamiz.

Usullar: Komponent-semantik tahlil, qiyoslash



MULOHAZA VA NATIJALAR

Darak mazmunidagi sodda gaplar presuppozitsiyasi. Darak mazmunidagi sodda gaplar orqali ifodalangan presuppozitsiya xarakteri gapda mavjud bo'lgan semantika va sintaktik qoliplashuvga ham bog'liq tarzda shakllanadi. Bunday mazmundagi gaplarda xabar, taxmin, tilak-maqsad, gumon ottenkalari yotishi mumkin. Presuppozitsiyaga ishora qiladigan eng muhim jihat esa tasdiq va inkor mazmuniga ega bo'lishidir. Bu turdag'i gaplarda zidlik, biror predmet, voqe'a-hodisani rad qilish yoki tasdiqlash va boshqa predmet, voqe'a-hodisaga zid qo'yish orqali shakllanadi.¹ Ushbu sodda gaplarda zidlik munosabatida zidlanuvchi a'zolar to'liq ishtirok etmasdan yashirin tarzda ifodalanadi. Masalan:

To'yingda bir xizmat qilmoqchi edim... (xizmat qilolmadim)

...- moqchi edi...

...moqchi edim-da...

...moqchi edi(yu)...

...ar edi-yu...

...digan edi(-yu, ya)...

...gan edi(-ya,-yu)... tuzilishidagi sintaktik qolipli gaplarda ham presuppozitsiya hodisasi ifodalanadi.

Bir qarashda bunday gaplar tugallanmagandek tuyilsa-da, lekin gap mazmuni tinglovchiga aniq bo'ladi.

Shunday gaplar borki tasdiq shaklidagi gap inkor mazmunni, va aksincha, inkor shakl tasdiq mazmunidagi presuppozitsiyaga yo'l ochadi. Bunday holat intonatsiya yordami bilan beriladi va biz unda gap vaziyati, shuningdek, kontekstga qarab presuppozitsiyani aniqlab olamiz.

Qiyoslaymiz:

1) *Qani gapirsa(-chi).(gapirmadi)*

2. *Kelmay ko'r-chi (keladi)*

Bu turdag'i gaplar fikrni kuchaytirib aytish uchun kuchaytiruv yuklamasi kesimga bog'lanib keladi, ba'zan esa kesimni takrorlash yo'li bilan maqsad amalga oshiriladi.

Darak mazmunidagi sodda gaplar baz'an tahmin, gumon ma'nosida kelib, presuppozitsiyaga ishora qiladi masalan:

Ertaga majlis bo'lar

Shuningdek, *Ega+ ... + Kesim(-sa kerak)*

Ega+...+Kesim(-ib qolar)

Ega+...+Kesim(-ar emish²)

kabi sintaktik qoliplar bilan ifodalanib, kutilayotgan voqe'a hodisa yoki harakat-holatga nisbatan qo'llaniladi va gap kesimi semantikasi bilan bog'liq holda presuppozitsiyani shakllantiradi.

So'roq mazmunidagi sodda gaplar presuppozitsiyasi. Presuppozitsiyaga yo'l ochuvchi lingvistik vositalar ichida sof so'roq gaplar va ritorik so'roq gaplar ham sanab o'tiladi. Ayniqsa, so'roq olmoshlari bilan kelgan so'roq gaplar presuppozitsiyaning ishora

¹ Lutfullayeva D. Tasdiq gaplarda shakily-mazmuniy nomuvofiqlik – T. Fan, 1997 –B.11-27

² Bunday qolipli gaplar faqat uchinchi shaxs uchun xos. Birinchi shaxsda ishlatalganda hayratlanish ma'nosida kelib, gap propozitsiyasiga zid presuppozitsiya anglashiladi. Ikkinci shaxsda presuppozitsiyaga ishora qilmaydi.



vositasi hisoblanadi. So'roq olmoshlari kim, nima qanday, qaysi, necha, qancha, qachon kabi so'roqlar yordamida shaxs, narsa predmet, belgi-xususiyat, vaqt, miqdor-daraja kabi munosabatlarga qaratiladi. So'roq olmoshlari ishtirok etgan gaplarda presuppozitsiya hodisasi yaqqol seziladi. Masalan: *Majlisda kimlar gapirdi? (kimdir gapirgan). Sen nimalar ko'tarib kelding? (nimadir olib kelgan)* gaplarida so'roq olmoshlari gap kesimi bilan bog'liq holda presuppozitsiyaga ishora qilgan.

Shuningdek, sof so'roq gaplar so'roq yuklamalar bilan birga kelishi mumkin. Bunda presuppozitsiya gapning mavjud bo'laklari va so'roq yuklamasi orqali hosil bo'ladi. Masalan:

Soat sakkiz bo'ldi. Dars boshlangunga qadar yetib borarmikanmiz(4).

Ushbu gapda kesim tarkibida kelgan -mi yuklamasi gumon ma'nosini yuklagan va natijada ushbu axborot dars tez orada boshlanadi presuppozitsiyasini shakllantirgan.

So'roq gaplar so'zlovchiga noma'lum bo'lgan biror narsa haqida ma'lumot bilish yoki xabar olish uchun ishlatiladi. So'roq gaplar faqatgina so'rash emas, balki so'roq yo'li bilan taajjub, hayratlanish, hayajon, buyruq, gumon tahmin, hukm ma'nolariga ishora qilinib presuppozitsiyaga yo'l ochadi. Masalan:

1. *Bolani kim sevmaydi? (taajjub, hayrat)*
2. *Ukam g'olib bo'ldimi? (hayajon)*
3. *Tezroq aytmaysanmi? (buyruq)*
4. *Soat sakkiz bo'ldi. Dars boshlangunga qadar yetib borarmikanmiz? (gumon)*
5. *Ot choptirish bo'yicha akamdan kim o'zoladi? (hukm)*

Presuppozitsiyalar yordamida ayni gap semantikasi va kommunikativ qimmatini konkret va haqqoniy baholash mumkin.³ Demak, ritorik so'roq gaplarning semantik sintaktik tabiatini tushintirishda presuppozitsiya hodisasi muhimdir. Ritorik so'roq gaplar javob talab qilmaydigan, javobi o'zida anglashilib turadigan gaplar hisoblanib, ularning shakligina so'roq, mazmuni esa tasdiq yoki buyruq shaklida bo'ladi. Aynan shu nomutonosiblik gapda ochiq va yashirin ifodalangan mazmunning zidlanishi natijasida presuppozitsiyaga ishora qiladi. Ritorik so'roq gaplarda gap kesimi ko'pincha inkor shaklda bo'ladi.

Masalan: *Bolani kim sevmaydi?*(1) gapi inkor shaklida bo'lib, **to'ldiruvchi+kim+kesim(-maydi)** sintaktik qolipi orqali *bolani hamma sevadi* tasdiq presuppozitsiyasi shakllangan. Yashirin ifodalangan axborot *bolani kim sevmaydi* axborotiga qarama-qarshi qo'yilgan. Xuddi shu kabi *Tezroq aytmaysanmi?*(3) misolini ham tahlil qilganimizda berilgan axborot so'roq yo'li bilan buyruq ottenkasi berilganini presuppozitsiya (*tezroq ayt*) orqali bilib olamiz.

So'roq mazmunidagi sodda gaplarning sintaktik qoliqlarini umumlashtirganimizda quyidagicha shakllantirilishi mumkin:

Tasdiq presuppozitsiyani shakllantiruvchilar

Shaxs(predmet)nomi +kesim(-may, -masdan)+bo'ladimi?

Shaxs nomi + ...+kesim(-maydimi, maysanmi)? - (*buyruqni ifodabaydi*)

yana (tag'in) +shaxs(predmet)nomi+ kesim(-may) qolmaydimi? –

(*aniqlik kiritishda*)

Faqat+shaxs(predmet)nomi+kesim(-madimi)?

³ Mahmudov N.M. Presuppozitsiya va gap. "Ozbek tili va adabiyoti" 6-soni. 1986-y. 30-bet



Shaxs(predmet)nomi+gina(ning o'zi)+kesim(-madi)+xolosmi?

Inkor presuppozitsiyani shakllantiruvchilar

Nahoki+predmet nomi+(bor, mavjud) bo'lsa;?

Predmet nomi+ bor (mavjud) ekanmi//bormi;

Qanday (qanaqa)+predmet nomi+ (bor,mavjud)bo'lardi?

qayoqda (qayerda)+predmet nomi+ (bor,mavjud)bo'ladi?

Qachon+predmet nomi+ (bor,mavjud)bo'lgandi?

qani+predmet nomi+ (bor,mavjud) ekanligi?

Qanaqa(qaysi)+predmet nomi+ bor (mavjud)?

Qayerda (qanaqasiga)+predmet nomi+ (bor,mavjud)bo'lsin?

predmet nomi+ qolibdimi?

Unda+predmet nomi+nima qiladi(nima qilsin)

Nimasi(nima narsasi, nima ham)+bor(mavjud)edi?⁴

Predmet nomi + bo'yicha (yuzasidan) + kim(nima)+ kesim(olmoq)?

Faqat(yolg'iz)+shaxs(predmet nomi)+ bormi?

Shaxs (predmet) nomi + -gina(-ning o'zi)+ bor(mavjud)mi?

Kim(nima)+kesim(madi)?

Shaxs(predmet)nomi+bor(mavjud)+xolosmi?

...ning o'rniqa+predmet nomi+bor (mavjud)mi (xolosmi)?

Ko'rindaniki, o'zbek tilida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi so'roq mazmunli sodda gaplarning sintaktik qoliplari xilma-xildir. Bunday sintaktik qoliplar muayyan bir nutq vaziyatida turli xil (ayniqsa, tasdiq va inkorni bildiruvchi) presuppozitsiyalarga ishora qilib, gapni mazmunan murakkablashtiradi.

Buyruq mazmunli sodda gaplar presuppozitsiyasi. Buyruq mazmunli sodda gaplar kishining xohish, iltimos, maslahat, buyruq kabi turli niyatlarini ifodalab keladi. Bunday gaplarning presuppozitsiyasi ko'pincha zid qutbli til birliklari o'rtasida shakllanib, ulardan biri yashirin tarzda ifodalanishi uchun asos bo'ladi. Ayniqsa, bunday gaplarning kesimi shart mayli bilan ifodalanganda gapning mazmuniy semantikasi berilgan axborotga teskari presuppozitsiyani shakllantiradi.

Koshki, hamma senga o'xshab mehribon bo'lsa . Odatda istak iltimos ma'nolarini anglatadigan bu tipdagi gaplar **koshki+predmet nomi+ -ga o'xshab+bo'lsa edi** sintaktik qolipi orqali voqelanuvchi gaplar tarkibida presuppozitsiyaga ishora qilingan. Bunday gaplar istak, xohish ma'nolarini hosil qilganda gap kesimi orqali ifodalangan propozitsiyaga semantik jihatigan zid bo'lgan presuppozitsiyani shakllantiradi.

Istak mazmunini bildirdan buyruq gap tarkibida ba'zi yuklamalarning ishtiroy etishi natijasida haam presuppozitsiya shakllanadi.

Bu ashuladan yana bo'lsin. Ushbu gapda kesimga bog'lanib kelgan yana yuklamasi presuppozitsiyaga vosita bo'lib bajarilayotgan ish harakatning takror bajarilishiga undamoqda. **Ega+yana+kesim** sintaktik strukturasi orqali *Ashula oldin aytilgan* presuppozitsiyasi shakllangan.

Shuningdek:

⁴ Lutfullayeva D. Sodda gaplarda yo'qlik ma'nosining yashirin ifodalanishi. // O'zbek tili va adabiyoti.- Toshkent -2001. 5-son- B. 42-45



Predmet nomi+ ... +-sa edi;

Predmet nomi+...+-gan bo'lsa boshqa gap edi;

Predmet nomi+...+-gan bo'lsa bir navi ;

Predmet nomi+...+-sa bo'lardi;

Predmet nomi+...+-ganda edi;

Qani edi+...+-sa(-ganda)

To'ldiruvchi+yana+-sin

Faqat+....+-sin

tuzilishidagi sintaktik qolipli gaplarda presuppozitsiya hisobiga turli xil buyruq mazmunidagi yashirin munosabatlar shakllanadi.

Xullas, o'zbek tilidagi gaplarda gap tarkibida maxsus Grammatik vositalar qo'llanmagan taqdirda, turli xil sintaktik qoliplar orqali ham ularning presuppozitsiyaga ishora qilaveradi. Shuning uchun ham gapning tuzilishi va uning ifodasi uni anglashimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Nurmonov A "Gapning presuppozitsiya aspekti" / A Nurmonov, H. Mahmudov, A. Ahmedov, S Solixo'jayeva O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi – Toshkent. Fan, 1992 – B.113-120
2. Lutfullayeva D. Tasdiq gaplarda shakily-mazmuniy nomuvofiqlik – T. Fan, 1997 –B.11-27
3. Lutfullayeva D. Sodda gaplarda yo'qlik ma'nosining yashirin ifodalanishi. // O'zbek tili va adabiyoti.- Toshkent -2001. 5-son- B. 42-45
4. Mahmudov N.M. Presuppozitsiya va gap. "Ozbek tili va adabiyoti" 6-son. 1986-y. 30-bet
5. U. Rahimov "O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi" T. 1994
6. .Z. Burxonov "O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar presuppozitsiyasi" T. 2007
7. <http://www.navoiy-uni.uz/> (Алишер Навоий номидаги Тошкент Давлат ўзбек тили ва адабиёти универсиети)
8. <http://www.krugosvet.ru/articles/82/1008254/print.htm>
9. <http://www.ling.ed.ac.uk/linguist/issues/7/7-1170.html>
10. <http://dshinin.ru/SC/Russian/www.hi-edu.ru/x-books-free/xboo>